



Responsibility for violating the procedure of organizing and conducting meetings, rallies, street marches, or demonstrations: criminal-legal and criminological aspects

Sherzod KULDASHEV¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 20 January 2025

Available online

15 February 2025

Keywords:

meetings,
rallies,
street fighting or
demonstrations,
mass riots.

ABSTRACT

This article discusses that the Constitution of the Republic of Uzbekistan establishes the most fundamental constitutional rights and freedoms of citizens, ensuring that everyone has the right to freedom of thought, speech, and belief. It states that every person has the right to seek, receive, and disseminate information of their choice, with the exception of information aimed against the existing constitutional order and other limitations established by law. The freedom of opinion and expression can only be restricted by law in cases related to state secrets and other confidential matters. Despite the fact that citizens' rights to hold rallies, meetings, and demonstrations are established, the procedures for conducting these events have not been clearly defined or regulated by any normative legal document, however, the Code of Administrative Responsibility of the Republic of Uzbekistan and the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan contain opinions on the establishment of administrative and criminal liability for violations of the procedure for organizing meetings, rallies, street fights, and demonstrations, as well as an analysis of legislation.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss1/S-pp508-514>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Teacher, Tashkent State University of Law. E-mail: sherzodkuldashev@mail.ru

Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o'tkazish tartibini buzganlik uchun javobgarlik: jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

yig'ilishlar,
mitinglar,
ko'cha yurishlari yoki
namoyishlar uyushtirish,
ommaviy tartibsizliklar.

Mazkur maqolada Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan fuqarolarning eng fundamental konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan, har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega ekanligi, har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasno ekanligi, fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkinligi, fuqarolarning mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazish huquqi belgilanib qo'yilishiga qaramasdan, ularning o'tkazilish tartib-qoidalari hech qanday normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solinib, aniq belgilab qo'yilmaganligi, biroq O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi hamda Jinoyat kodekslarida yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o'tkazish tartibini buzish bo'yicha ma'muriy va jinoyat javobgarliklar belgilanganligini bo'yicha fikr mulohaza hamda qonunchilikdagi tahlillardan iborat.

Ответственность за нарушение порядка организации, проведения собраний, митингов, уличных шествий или демонстраций: уголовно-правовые и криминологические аспекты

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

собрания,
митинги,
уличные бои или
демонстрации,
массовые беспорядки.

В данной статье рассматриваются основные конституционные права и свободы граждан, закрепленные в Конституции Республики Узбекистан, а именно право каждого на свободу мысли, слова и вероисповедания, право на поиск, получение и распространение информации. Подчеркивается, что любые ограничения, установленные законом или направленные против действующего конституционного порядка, исключены из этой свободы. Свобода выражения мнений и ее ограничение возможны только в случае государственной тайны или других защищаемых законом интересов. Также рассматривается право граждан на проведение митингов, собраний и демонстраций, несмотря на отсутствие четкого нормативно-правового регулирования порядка их проведения. В статье проводится анализ действующего законодательства, в том числе Кодекса об

административной ответственности и Уголовного кодекса Республики Узбекистан, касающихся ответственности за нарушение порядка проведения митингов, собраний, уличных шествий или демонстраций.

Fuqarolarning mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazish huquqi 2023-yil 5-maydagi Konstitutsiyasining 38-moddasida belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra, fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtayi nazaridagina bunday tadbirlar o'tkazilishini to'xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.

Ushbu huquq davlatimiz mustaqillika erishganidan so'ng fuqarolar uchun o'zlarining siyosiy huquqlarini amalga oshirish uchun imkoniyat yaratilgan bo'lib, haligacha ushbu huquqdan foydalanish uchun qilinadigan tartib-qoidalar adolatli tarzda belgilab qo'yilib, ta'minlab berilayotgani yo'q.

Fuqarolarning mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazish kabi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash bilan birgalikda bu turkumdagi tadbirlarning o'tkazilishi tartibi yaratilishi, bu tartibni buzganlik uchun belgilangan ma'muriy va jinoiy javobgarlik masalalari qaytadan puxta ko'rib chiqilishi, shu bilan birga mazkur tartibni buzishga olib keladigan sabab va shart-sharoitlar, jinoyat-huquqiy hamda kriminologik jihatlar o'rganilib chiqilishi zarur.

Bundan tashqari, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish sohasida jnoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish yo'nalishida yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o'tkazish tartibini buzganlik uchun javobgarlik va jinoyat-huquqiy hamda kriminologik jihatlariga bir qancha tavsiyalar mavjud.

O'rganilayotgan mavzuda fuqarolarning mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazish huquqi Konstitutsiyada belgilanganiga qaramasdan qariyb shu kunga qadar uning o'tkazish tartibi belgilab qo'yilmaganligi, yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o'tkazish tartibini buzganlik uchun javobgarli, jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari masalasi ilmiy va nazariy jihatdan tadqiq etish zarurati mavjudligi, hozirgi davrdagi axborot xuruji, omma psixologiyasi tufayli xorijiy davlatlarda sodir bo'layotgan ommaviy tartibsizliklarning fuqarolar ongiga ta'sir etayotganligi, fuqarolarning yetarli huquqiy ong va huquqiy madaniyatga ega bo'lmasligi tufayli o'z noroziliklarini tinch, qonuniy tartibda emas, balki ommaviy tartibsizliklar, bezoriliklar yoki boshqacha tarzda bildirishi, jumladan firibgarlarning aldovlariga aldangan bir necha yuzlab fuqarolarning hokimiyat organlariga yoki boshqa joylarda to'planishlari, LGBT provokatsiyalari tufayli bir necha o'nlab fuqarolarning jamoat joylarida to'planishlari, bir guruh zo'ravonlarning bir necha aybsiz fuqarolarning samosud qilish orqali bezoriliklar sodir etishlari va boshqa ko'plab holatlarning yuzaga kelayotganligi mazkur masalaning ahamiyatini orttiradi.

Chunonchi, 1948-yil 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan va e'lon qilingan **"Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"**ning 20-moddasi 1-qismiga ko'ra, har bir inson tinch yig'inlar o'tkazish va uyushmalar tuzish huquqiga ega ekanligi, shuningdek, 1966-yil 16-dekabr, Nyu-Yorkda qabul qilingan "Fuqaroviy va siyosiy huquqlar

to'g'risi"da Xalqaro paktning 21-moddasiga ko'ra, tinch yig'inlarga huquqlar tan olinishi, bu huquqdan foydalanishda hech bir cheklashga yo'l qo'yilmasligi, qonunga muvofiq qo'yilgan va demokratik jamiyatda davlat va jamiyat xavfsizligi, jamoat tartibi, aholi salomatligi va axloqi yoki boshqa shaxslar huquqlari va erkinligi manfaatlari uchun zarur bo'lgan cheklanishlar bundan mustasno ekanligi qayd etilgan. Ushbu xalqaro hujjatlardagi va asosiy qonun hujjatimiz bo'lgan Konstitutsiyamizdagi inson huquqlarini ta'minlash uchun miting, yig'ilish, namoyish va ko'cha yurishlari tushunchalarini keng o'rganib chiqish, tushunish va quyi normativ-huquqiy hujjatlar bilan ushbu huquqlarni ta'minlash uchun aniq tartib-qoidalar belgilab qo'yish maqsadga muvofiq.

Mazkur masalalarni o'rganish borasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi sharhi va boshqa manbalarga murojaat orqali, "miting" – inglizcha so'z bo'lib, "ommaviy yig'in", "ommaviy marosim" degan ma'noni anglatib, siyosiy ma'noga ham ega bo'lib, biron-bir hayotiy muhim muammoni muhokama qilishga qaratilgan ommaviy marosim, ommaviy siyosiy yig'ilishdir. Miting tarkib jihatdan turli toifadagi kishilardan tashkil topgan bo'lib, unda miting yo'nalishini belgilovchi biron-bir shaxs va guruhdan tashqari shunga qiziquvchilar yoki muhokama qilinayotgan masalaga befarq va loqayd kishilar ham qatnashishi mumkin. Miting ishtirokchilarining soni cheklanmagan bo'ladi. Miting stixiyali yoki oldindan kelishilgan reja asosida o'tkazilishi mumkin [2].

Mitinglar odatda ochiq havoda o'tkazilib, revolutsiya qabul qilinishi bilan yakunlanadi. Qoida tariqasida, miting o'tkazilishi haqida oldindan ijro etuvchi hokimiyat organlari xabardor qilinishi, ijroiya organning bunday xabarni qabul qilishdan bosh tortishi miting o'tkazilishi mumkin emasligini (ya'ni, amalda taqiq etilishini) anglatadi.

Yig'ilishlar – u yoki bu masalani muhokama qilish va tegishli qarorga kelish maqsadida muayyan miqdordagi maslakdosh kishilarning biron bir xona yoki binoga to'planishidir. Yig'ilishda odatda bir yoki bir necha masala muhokama qilinadi, majlis stenografiya qilinadi yoki yozma bayonnoma tuziladi. Yig'ilish yoki, boshqacha ifodalanganda majlis turli fikrlar, hatto muqobil baho, mulohaza va takliflar asosida o'tadi. Yig'ilish mitingdan farqli o'laroq tartib bilan o'tadi. Buning boisi – yig'ilishga odatda rais yoki boshlovchi saylanadi. Yig'ilishlar inson siyosiy huquqlarini ifoda etish va amalga oshirishning madaniy shakllaridan biridir [1].

Namoyishlar tushunchasi esa – u yoki bu siyosiy qarorga yoki ijtimoiy holatga nisbatan ommaning siyosiy munosabati va kayfiyatini ochiq ifodalash shaklidir. Namoyish siyosiy hokimiyatning u yoki bu qarorini qo'llab-quvvatlash, hamkorlik yoki unga nisbatan norozilikning ifodasi bo'lishi mumkin. Namoyish ijtimoiy ongga katta ta'sir ko'rsatish kuchiga ega. U jamiyat ommaviy fikri va munosabatini ifodalagan sababli jamiyat hayotiga keskin ta'sir qiladi, ommani muayyan harakatga undaydi.

Namoyish – bir guruh fuqarolar tomonidan targ'ibot materiallaridan foydalangan holda jamoatchilik kayfiyatini ifodalash orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy faollikning uyushgan shakli hisoblanadi. Namoyish ko'cha yurishi, piket yoki fleshmob shaklida o'tkazilishi mumkin.

Shu bilan birga, namoyishlar bir guruh shaxslar tomonidan o'tkazilishiga qarab, yig'ilishlarga o'xshab ketsa, ommaviy ifoda etilish tarziga ko'ra, mitinglarga o'xshab ketadi, shunga qaramasdan namoyishlarda namoyishchilar biror-bir masala yuzasidan o'zlarining ijtimoiy-siyosiy kayfiyatlari va munosabatlarini plakatlar, transparentlar va ko'rgazmali materiallardan foydalangan holda amalga oshirishi bilan ajralib turadi.

Ko'cha yurishlari tushunchasiga to'xtalsak, Jinoyat kodeksiga berilgan sharhda keltirilgan ta'rifga ko'ra, ko'cha yurishlari – biror-bir muammo yuzasidan hokimiyat organlari va jamoatchilikning e'tiborini tortish maqsadida shaxslarning ko'chada, dahada tashkiliy yoki ommaviy harakatlanishi [7].

Mazkur ta'rifdan kelib chiqib aytish mumkinki, ko'cha yurishlari mitinglar, yig'ilishlar hamda namoyishlarga nisbatan ancha tor tushuncha bo'lib, uning qatnashchilari namoyishlardagi kabi biror muammoga ochiq-oydin qanday munosabatda ekanliklarini bildirishmaydi, yig'ilishlar kabi biror masala yuzasidan qaror qabul qilishmaydi, mitinglardagi kabi ro'y bergan voqea-hodisaga fikr-mulohazalarini bildirishmaydi. Biroq o'z noroziliklarini bildirish, hokimiyat organlari hamda jamoatchilikning e'tiborini tortish maqsadida ko'chalarda, dahalarda tashkiliy yoki ommaviy harakatlanishadi.

Bundan tashqari yuqorida qayd etilgan piket va fleshmob usullarini ham tahlil qilish lozim. Masalan piket – harakatsiz va ovoz kuchaytiruvchi texnik vositalardan foydalanmagan holda o'tkaziladigan obyekt oldida bir yoki undan ortiq fuqarolar tomonidan targ'ibot materiallaridan foydalangan holda ijtimoiy muhim fikrlarni ommaviy ravishda ifoda etilishini nazarda tutadigan namoyish shakli va fleshmob esa oldindan rejalashtirilgan ommaviy aksiya bo'lib, namoyishning bir shakli hisoblanib, unda katta guruh jamoat joyida paydo bo'ladi va oldindan belgilangan harakatlarni (ssenariy) bajaradi va keyin tarqalib ketadi.

Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish deganda, qonunda belgilangan tartibda o'tkaziladigan yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar o'tkaziladigan joy, o'tkazish shakli, joyi va vaqtini, harakatlanish yo'nalishini, ishtirokchilarni jalb etish tartibini, so'zga chiquvchilarni tanlash va boshqa harakatlarni belgilab olish tushuniladi [4].

Demak, qisqacha aytganda, yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish ularni qayerda, qaysi shaklda, qachon, qaysi yo'nalishda, kimlar ishtirokida va boshqalar harakatlarni oldindan belgilab olish hisoblanadi.

Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar o'tkazish deganda esa, shunday tadbirlarni o'tkazish maqsadida tashkiliy masalalarni faktik jihatdan bajarish va hokazolar tushuniladi [5].

Shu bilan birga, ruxsat berilmagan yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlarini uyushtirish tushunchasi ham mavjud bo'lib, bu fuqarolarning birlashishi va muayyan shaxslar, tashkilotlar, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi voqealarga nisbatan o'z munosabatlarini ommaviy namoyish etishlari, ko'cha bo'ylab ommaviy tashkil etilgan harakatda fuqarolarning o'z ijtimoiy-siyosiy kayfiyatini turli ko'rgazmali vositalar yordamida ifodalashini o'z ichiga oluvchi tegishli tadbir tashkilotchisining g'ayriqonuniy harakatlari hisoblanadi. Bu muayyan yopiq binolarda g'ayriqonuniy yig'ilishlar va mitinglar o'tkazish, bunday tadbirlar o'tkazilishi haqida murojaatnomada belgilangan maqsadlar, uning boshlanishi va to'xtatilishi vaqtiga rioya etmaslik, g'ayriqonuniy tadbirni to'xtatish to'g'risidagi hokimiyat organlarining qonuniy talablariga bo'ysunmaslik hamda boshqa tartiblarga rioya etmaslikda namoyon bo'ladi [6].

Hozirgi XXI asrda OAV hamda internet rivojlangan davrda fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi bo'lib oshib, o'z noroziliklarini qonuniy yo'llar bilan jumladan mitinglar, yig'ilishlar, ko'cha yurishlari va namoyishlar shaklida bildirishlari ularning yanada samaraliroq yoyilishiga hamda ijobiy natijaga olib kelishiga sabab bo'lmoqda, shu bilan

birga bu noroziliklarni bildirish shakli ham o'zgarib bormoqda, maydoni esa yanada kengayib, xalqaro tus olmoqda.

Masalan ilgari faqat real hayotda ko'chalarda amalga oshiriladigan noroziliklar hozirigi kunga kelib virtual hayotga, internet, ijtimoiy tarmoqlarga ko'chmoqda va bu turli nomdagi challengelar, heshteglar hamda da'vatlar orqali amalga oshirilmoqda.

Shu jumladan, insonlarning ijtimoiy-siyosiy faolliklarini ko'rsatish, biror voqea-hodisa yuzasidan o'z noroziliklarini bildirish maydon jihatidan ham kengayib borishiga, noroziliklarning global miqyosda sodir bo'lishiga "stop genocide, free uyghur" va "blacklivermatter"lar yaqqol misoldir.

2020-yil may oyida AQSHning Minnepolisida afroamerikalik Jorj Floydning 20 dollarlik qalbaki pul bilan bog'liq jinoyiy ishda gumonlanib, hibsga olinishi bilan bog'liq video internetda tarqalib ketgach, bu shaharda hamda boshqa shaharlarda ham ommaviy noroziliklarni keltirib chiqardi, natijada 2013-yildagi "blackliver matter" noroziliklarini qaytalanishi sodir bo'ldi. Bu noroziliklar esa tez orada G'arbiy Yevropa davlatlarida, keyinchalik esa butun dunyoda o'z aks-sadosini berdi.

Bunday noroziliklar ortidan esa hukumatlar, davlatlar ham inson huquqlari bilan bog'liq muammolarga e'tibor berib, chora-tadbirlar ko'rishga boshqa hukumatlarni chaqirishmoqda, yo'qsa, sanksiyalar qo'llash bilan chora ko'rishlarini aytishmoqda. Albatta, davlatlar o'z manfaatlaridan kelib chiqib, siyosat yurgizishadi, biroq xalqaro inson huquqlari uchun kurash hozirda har qachongidan ko'ra yaxshiroq holatda.

Bu shuni ko'rsatadiki, ma'lum bir davlatdagi ichki muammolar ham global ahamiyat kasb etib bormoqda, aniqroq aytganda, dunyo global qishloqqa aylanib bormoqda, chunki, butun dunyo davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa jihatlardan bir-biriga uzviy bog'langandir.

Shuningdek, oddiy insonlar ham, ilm-fan ziyolilari ham, butun dunyoda muxlislariga ega bo'lgan san'atkorlar, sportchilar ham va boshqalar ham dunyoning narigi chekkasida bo'layotgan adolatsizliklarga o'z muammosiday qarashni o'rganmoqda. Chunki bugun bunga ko'z yumilsa, ertaga ularning ham boshiga shu ishlar, adolatsizliklar tushishini his qilishmoqda.

Insonning siyosiy huquqini ifoda qiluvchi mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar har bir mamlakatda davlat hokimiyati tomonidan nazorat qilib turilishi kerak. Chunki bunday tadbirlar o'tkazilayotganda ba'zi bir buzg'unchi kuchlar mamlakatda siyosiy tartibsizlikni keltirib chiqarishga harakat qiladilar. Mamlakatda osoyishtalikni saqlash maqsadida miting, yig'ilish va namoyishlarning borishi kuzatib turiladi va qonunga zid ravishda o'tkaziladigan bunday tadbirlarga yo'l qo'ymaslikka harakat qilinadi [6].

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, avvalo mamlakatimizda "Miting, yig'ilish va namoyishlar to'g'risida"gi Qonuni loyihasini ishlab chiqish va qonundagi moddalarni takomillashtirish yo'li bilan ko'cha yurishlari, yig'ilish, miting hamda ularni uyushtirish kabi masalalarni

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. //Mualliflat tarkibi: M. Y. Abdusalomov, B. T. Akromxo'jayev, X. R. Alimov va boshq., Tahririyat kengashi: Sh. O'razayev (Rahbar), Z. Almatov va boshq./ - T.: "O'zbekiston", 2001. - 200-bet.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati, O'zbekiston, Toshkent, 602-bet.

3. Большой юридический словарь / Под ред. А.Я. Сухареваб, В.Е. Крутских. – М.: ИНФРА – М. 2000. – 683-б. URL: <https://istina.msu.ru/publications/book/30668625/>

4. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 4. Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 394-bet.

5. Rustamboyev M.X. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh [Qayta ishlangan va to‘ldirilgan ikkinchi nashr] maxsus qsm / M. Rustamboyev. – Toshkent: “Adolat”, 2016. – 591-b. URL:

6. Большой юридический словарь. / Под. ред. А.Я. Сухарева, В.Е. Крутских. – М.: ИНФРА-М. 2000. 565-бет URL: <https://istina.msu.ru/publications/book/30668625/>

7. Tadjibayeva, O. A. Inson huquqlari: o‘quv qo‘llanma/O. A. Tadjibayeva, N. K. Ramazonova. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010. 90-bet.